



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDAGI ISLOHOTLAR

Abduhoshimov Abdunozim Otabek o'g'li

ADU Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti MG`MAHT yo`nalishi
4 – bosqich 401 – gurux talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5701165>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01- Noyabr 2021
Ma'qullandi: 05- Noyabr 2021
Chop etildi: 10- Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Internet, tinchlik,
mustaqillik, ommaviy
axborot, assambleya,
boshqaruv, islohot

ANNOTATSIYA

mamlakatimiz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan oq yoshlarning, bolalarning ma'naviy va jismoniy barkamolligi davlatimizning bosh siyosatiga aylandi. Buni yillarning nomlanishiga, chiqarilayotgan qarorlarning mazmuniga bir ko'z tashlagan inson anglab oladi.

Bugungi kunda demokratik jarayonlarni saylovlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Saylovlar fuqarolarning eng muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, ushbu huquq orqali ular davlat boshqaruvida ishtirok etadilar va fuqarolik faolliklarini ko'rsatadilar. Saylovlarning ahamiyati to'g'risida Prezidentimiz to'xtalib o'tar ekan quyudagi fikrlarni bildiradilar: Saylovlar jarayonida har qaysi davlat har qaysi jamiyat xilma-xil fikrlar, odamlarning xohish-irodasi orzu umidlari ijtimoiy kayfiyatlari ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga har qanday siyosiy harakatlar va kuchlar saylovga tayyorgarlik ko'rish o'z platformalarini belgilab olishi, bularning barchasi tabiiy holdir. Bu siz o'zi hayot ham, taraqqiyot ham bo'lmaydi

Demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri bu parlamentni ko'p

partiyaviylik tamoyili asosida tashkil etilishidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlar asosida shakllanar ekan, bu jarayon siyosiy partiyalarning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Siyosiy partiyalarni parlamentni shakllantirishdagi ishtiroki ularning asosiy elektoral funksiyasi yo'lida hizmat qilib, bu uning davlat hokimiyatini egallash v amalga oshirish uchun mo'ljallangan tashkilot sifatidagi mohiyatini belgilab beradi. Demokratik jamiyatda ushbu maqsadga faqatgini qonuniy yo'l bilan erishish, ya'ni siyosiy partiyalarning saylovlarda, avvalambor, markaziy davlat institutlarida davlat boshlig'i va parlamentni shakllantirishda qatnashishi bilan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

Respublikamiz siyosiy partiyalarining Qonunchilik palatasi



saylovlarida ishtiroki 2003 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan Oliy Majlisga saylov to'g'risidagi qonuni bilan kafolotlangan. Ushbu qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (quyi palata) besh yil muddatga saylanadigan 150 deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining bir yuz o'ttiz besh deputati hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Ushbu qonunda siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasiga nomzodlar ko'rsatish tartibi, nomzodlarning ro'yxatga olish tartibi va saylov jarayonlarida siyosiy partiyalarga teng imkoniyatlar yaratilishi belgilandi. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasiiga sayloviga oid vakolatlarning eng asosiysi ularning nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega ekanligidir. Bunday vakolat O'zbekiston Respublikasi Siyosiy partiyalar to'g'risidagi (12 modda) va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis saylov to'g'risidagi (20 modda) qonunlarida mustahkamlangan.

O'tgan yillar davomidagi saylovlarda nomzodlar ko'rsatishga doir qonunchilikdagi o'zgartirishlarga e'tibor bersak, ular tobora siyosiy partiyalarning saylovlardagi ishtirokini mustahkamlab borayotganiga guvoh bo'lamiz. Bu holat siyosiy partiyalarning saylovlarda haqiqiy raqobat olib borishi uchun zamin tayyorlaydi. 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis saylov to'g'risidagi qonuni 20-moddasiga ko'ra, deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqiga Qoraqolpog'iston

Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari ham ega edi.²

Siyosiy partiyalarning saylovlardagi ishtiroki etish huquqi 2008 yil 25 dekabrda Prezidentimiz tomonidan yangi Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashgani munosabati O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida gi qonuniga imzo chekishi yanada kengayishiga olib keldi. Ushbu qonunga ko'ra saylov jarayonlarida tashabbuskor guruhlarining ishtiroki bekor etildi.

Chunki tashabbuskor guruhlari tomonidan nomzodlar ko'rsatish yildan-yilga takomillashib borayotgan ko'p partiyaviylik tizimida samarasiz institutga aylanib qoldi. Bu institut bekor qilingunga qadar bo'lgan oxirgi saylovlarda mustaqil deputatlar siyosiy partiyalar bilan raqobatlasha olmadilar. Mustaqil deputatlar guruhlari to'g'risida professor Akmal Saidov to'xtalar ekan, o'z fikrlarini quyudagicha bayon etadi: parlament saylovlari shuni ko'rsatadiki, mustaqil nomzodlarning aksariyati saylovlarda qatnashish tajribasiga ega emaslar. Ularning yetarli darajada yo'lga qo'ygan saylov kompaniyasini o'tkazish mexanizmi ham yo'q. Siyosiy partiyalar bu borada ulardan ustundirlar. Mustaqil nomzodlarning aksariyati siyosat bilan yaqindan va to'g'ridan-to'g'ri bog'iq bo'lmaganliklari uchun ularning professional siyosatchilar bilan raqobatlashishi va keyinchalik parlamentda o'z manfaatlarini qat'iyatlik bilan himoya qila olishlarini qiyinlashtiradi¹.

Mamlakatimiz saylov jarayonlarida fuqarolar tashabbuskor guruhlari



tomonidan nomzodlar ko'rsatish institutini bekor etilishi siyosiy partiyalar uchun ham imkoniyat ham mas'uliyat sifatida baholashimiz mumkin.

Yevropa va dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarida davlat hokimiyatining barcha jabhalarida faoliyat yuritayotgan davlat va jamoat arboblari partiyalardan yetishib chiqadi. AQSH da prezident saylovlarida g'alaba qozongan prezident bo'shab qolgan ikki yarim mingdan ziyod davlat mansablarini aksariyatiga o'z partiyasining tavsiyasi bilan kadrlarni tanlab oladi. Chunki ushbu shaxslar partiyaviy raqobatlar natijasida o'zini shaxsiy va ilmiy salohiyatlarini ko'rsatishga erishib, siyosiy jihatdan yetuk darajada tarbiyalanadi. Mamlakatimizning mavjud partiyalarida ham barcha sohalarida halol raqobat va munozaralar tizimli ravishda tashkil etilmasdan turib g'oyaviy va siyosiy jihatdan yetuk arboblarni shakllantirish mumkin emas.

Saylovoldi tashviqoti davrida saylovchilarga beriladigan nomzodlar va ularning dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlarning aniq ravshan bo'lishi zarur. Ular o'z dasturlarida siyosiy, iqtisodiy masalalar bilan qatorda ma'naviy-ma'rifiy dasturlarini ilgari surishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlarda siyosiy partiyalarning muvaffaqiyatli ishtiroki Qonunchilik palatasidagi partiyalar faoliyatiga yo'l ochib beradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatida siyosiy partiyalar ishtiroki esa har bir rivojlangan demokratik-huquqiy davlat parlamentida siyosiy partiyalar faol ishtiroki muqarrar bo'lgani kabi tabiiy va muhim hodisadir.

Chunki siyosiy partiyalar siyosiy tizimning markaziy bo'lagi sifatida ijtimoiy-siyosiy tizim yoki hayotda muhim o'rin egallaydilar.

Ko'p partiyaviylik tizimi amal qilayotgan davlatlarda parlament har doim o'z tarkibiga ko'ra partiyaviy xususiyatga ega bo'ladi. Zero, ushbu holatda, siyosiy partiyalarsiz parlamentarizm qurib bo'lmaydi degan mashhur qoida amal qiladi. Zotan demokratik huquqiy davlatda parlament shakllanish shakli sifatida ko'p partiyaviylik asosida o'tkazilgan saylov yagona maqsadi bo'lgan yo'l bo'lganidek, parlament tashkil etilishi va faoliyatida ham siyosiy partiyalar va ularning birlashmalari o'rni va ahamiyati yuqori bo'ladi. Demokratik davlat barpo etishda siyosiy partiyalarning parlament faoliyatidagi ishtiroki shaklini quyudagicha tasniflab, tadqiq etish maqsadga muvofiq:

- siyosiy partiya vakillarining parlamentdagi faoliyati;

- siyosiy partiya vakillari birlashmalari (deputalik birlashmalari, guruhleri, fraksiyalari) ning parlamentdagi faoliyati;

Bir necha siyosiy partiyalar fraksiyalarining birgalikdagi faoliyati. Bunda siyosiy partiyalar fraksiyalarining blokka birlashishi qonunda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshirishda ularning mustaqilligi cheklab qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va boshqa sohaga doir hujjatlarda belgilangan bo'lib, ular quyudagicha tizimlanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O'zbekiston Respublikasining oliy davlat vakilik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.



- Qoraqolpg'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Qoroqolpg'iston Respublikasidagi butun davlat apparatining yagona va doimiy asosi bo'lib, u davlatni boshqa organlarini saylaydi yoki tuzishda ishtirok etadi, ular faoliyati ustidan nazort olib boradi. Jo'qorg'i Kengesi davlat hokimiyat ining oliy organi sifatida Qoroqolpg'iston Respublikasi ixtiyoriga berilgan barcha masalalarni o'zi hal etish huquqiga ega.

- Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-

moddasiga ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Respublikasimizdagi vakillik organlarini bunday tartibda tizimlashtirilishi mamlakatimizning hududlariga va tarixiy boshqaruv shakllarimizga qarab amalga oshirildi.

References:

1. I.A. Karimov O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 - T.: O'zbekiston, 1996
2. I.A. Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». «Ma'naviyat». Toshkent 2008
3. Sh.M.Mirziyoyev «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatining birgalikda barpo etamiz» "O'zbekiston" Toshken
4. 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha «Harakatlar strategiyasi» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4947-sonli farmoni.
5. 2016-yil 14 sentabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun.